

O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGLARNING AHAMIYATI

Urganch Ranch Texnologiyalar universiteti

Maxmudova Sevara Arslon qizi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati, atrof muhitni asrash borasida tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari, ekologiyani asrash borasida pedagoglarning o'rni, ekologik madaniyat orqali sog'lom muhitni yaratish, rivojlanish, ekologik madaniy qadriyatlar, insonlarning tabiatga nisbatan xulq-atvorining tabiiy o'zgarishi qay tartibda bajarish lozimligi haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, madaniyat, ekologik qadriyatlar, pedagog, muhit, sog'lom turmush muhiti, ekologik xavfsizlik, yoshlarni ekologik tarbiyasi, tabiatni asrash.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы экологической культуры, мнения исследователей о сохранении окружающей среды, роль педагогов в сохранении экологии, создание здоровой окружающей среды через экологическую культуру, развитие, экологические культурные ценности, естественное изменение поведения людей по отношению к природе, продуктивная работа педагогических кадров в этом направлении, в каком порядке следует проводить экологическую подготовку детей школьного возраста. подробно описано о.

Ключевые слова: экология, культура, экологические ценности, педагог, окружающая среда, среда здорового образа жизни, экологическая безопасность, экологическое воспитание молодежи, охрана природы.

Abstract: this article details the views of researchers on ecological culture, environmental preservation, the role of educators in preserving ecology, the creation of a healthy environment through ecological culture, development, environmental cultural values, natural changes in human behavior towards nature, the effective work of pedagogical personnel in this regard, the order in which environmental protection should be performed for school age children.

Keywords: ecology, culture, environmental values, educator, environment, healthy living environment, environmental safety, environmental education of young people, conservation of nature.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son farmoni ijrosini ta'minlash,

aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ushbu yo'nalishda davlat organlarining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini hamda O'zbekiston ekologik partiyasining fuqarolar ekologik bilimlarini oshirishga qaratilgan juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ekologiya — bu organizmlar va ularning atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, organizmlarning tabiatda qanday yashashi, ularning bir-biri va atrofidagi abiotik (fizik- kimyoviy) omillar (masalan, iqlim, suv, tuproq) bilan qanday aloqadaligi kabilarni o'rganuvchi fan hisoblanadi. Umuman ekologiya biz yashab turgan tabiat, hayvonlar, o'simliklar, suv, havo va boshqa ko'plab tabiat vositalaridir. Bu vositalarsiz na insonlar, na hayvonlar, na o'simliklar yashay oladi. Bugungi kunda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishlari sabab ekologiyani asrab- avaylash va atrof-muhitni muhofaza qilish har bir inson, jamoa va davlat uchun muhim hisoblanadi. Bugun ko'plab insonlar tomonidan o'rmon daraxtlarining kesilishi oqibatida tabiatga ham hayvonlarga katta zarar yetkazilmoqda. Bilamizki, daraxtlar zaharli karbonat angidrid(CO₂)ni o'ziga yutib, yashashimiz uchun muhim bo'lgan kislorodni(O₂) ishlab chiqaradi. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining sessiya va qo'mitalarida tabiat muhofazasi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilib boradi. Uning 1972 yildagi Stokgolm konferensiyasida 1973 yildan boshlab «Atrof muhit Dasturi» ixtisoslashgan tashkiloti - YuNEP ni tuzish haqida qaror qabul qilindi. YuNEP ning asosiy vazifasi atrof muhit holati hamda biosferadagi o'zgarishlarni kuzatib borish bo'lib, uning shtab-kvartirasi Keniyaning Nayrobi shahrida joylashgan. U dunyo bo'yicha atrof muhitdagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlarni to'plab borish bilan birga bu boradagi davlatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirib turadi, ularga kerakli yordam ko'rsatadi va zarur hollarda qaror qabul qilib, u yoki bu davlatga ko'rsatma beradi hamda uning bajarilishini nazorat qiladi. Tabiiy muhitdagi o'zgarishlarni kuzatib borish maqsadida YuNEP ko'pgina davlatlar hududida biosfera qo'riqxonalarini tashkil qildi².

Daraxtlar kesilishi natijasida kislorod ishlab chiqarilishi kamayadi va bu insonlar uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi. Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlar, oziq- ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi va ekologiya bilan bog'liq muammolar hamjamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda. Jahon yalpi ichki mahsuloti, aholi sonining o'sishi, insoniyatning atrof-muhitga salbiy ta'siri va global energiya resurslarining cheklanayotgani ekologik muammolarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Albatta bu muammolarning oldini olishda eng avvalo insonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Madaniyat — bu insoniyatning ijtimoiy, ma'naviy, moddiy va intellektual faoliyati natijasida shakllanadigan, avlodlar davomida to'planib boruvchi va o'zgaruvchan murakkab tizimdir. Madaniyat inson hayotining barcha jabhalarini (til,

din, san'at, adabiyot, an'analar, qadriyatlar, me'morlik, kiyim-kechak, ovqatlanish, ijtimoiy me'yorlar va boshqalar) qamrab oladi. U milliy, mintaqaviy yoki global miqyosda shakllanishi mumkin va har bir jamiyatning o'ziga xosligini ifodalaydi.

Ekologik madaniyat — bu insonlar va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, tabiatni asrash va uning resurslarini barqaror foydalanish prinsiplariga asoslangan qadriyatlar, odatlar va turmush tarzidir. Bu madaniyat ekologik ongni oshirish, atrof-muhitni himoya qilish, ekologik xavf- xatarlarni kamaytirish, tabiiy resurslarni oqilona va samarali boshqarish, va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish kabi bir qancha vazifalarni o'z oldiga qo'yadi. Ekologik madaniyat quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi; tabiiy boyliklarni tejamkorlik bilan ishlatish, zararli chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va ekologik zararli faoliyatlarni oldini olish, resurslarni sarf qilishda hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini ham inobatga olish va boshqa jihatlarni o'z ichiga oladi. Yosh avlodda ekologik madaniyat, ekologik tarbiyani shakllantirish bevosita pedagoglarning vazifasi, chunki ular faqat bilim beruvchi emas, balki bolalar va o'quvchilarni atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli, ongli va faol fuqarolar sifatida tarbiyalovchi shaxslar hisoblanadi.

Pedagog — bu o'quvchilarga, talabalarga yoki boshqa o'quvchilar guruhlariga bilim, ko'nikma va qadriyatlarni o'rgatish, tarbiyalash, va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan mutaxassisdir. Ekologik madaniyatni shakllantirishda o'quvchilarga faqat nazariy bilimlar berish kifoya qilmaydi. Pedagoglar amaliy faoliyatlar orqali o'quvchilarni tabiat bilan bevosita tanishtirishlari kerak. Masalan, o'quvchilarni maktab atrofiga daraxt ekishga, bog' yaratishga, ekologik toza mahsulotlar bilan ishlashga yoki chiqindilarni to'g'ri sarflashga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ekologik xavfsizlik — organizmlar va ularning yashash muhitining tabiiy va antropagen omillar ta'sirida turli miqyosda va tezlikda yuzaga keluvchi salbiy holatlaedan saqlanganlik darajasi³. Bugungi kunda ekologik xavfsizlikning dolzarbligi ortib bormoqda, chunki insoniyat ko'plab ekologik muammolarni duch kelmoqda: global iqlim o'zgarishi, ifloslanish, tabiiy resurslarning tugashi va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi. Shuningdek ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida yurtimizda ham bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Orolbo'yi hududini rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqildi, O'zbekiston Parij bitimini ratifikatsiya qildi. Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trast jamg'armasi tashkil etildi, 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlandi. O'zbekiston "2019- 2030 yillar davrida mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"ni qabul qildi, mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish bo'yicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Shu o'rinda

Prezidentimiz o‘z nutqlarida ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilligining oldini olish bundan buyon ham dolzarb vazifa bo‘lib qolishini qayd etdi. Shuni ham aytib o‘tishimiz mumkinki Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish qo‘mitasini ma‘lumotlarga ko‘ra, 1964-yili Orol dengizining maydoni 68,9 ming km kv bo‘lgan. undagi suv hajmi esa 1083 km kubdan oshgan. Bu vaqtlarda har yili Orol dengizidan 30-35 ming tonna baliq tutilgan va konserva zavodlari ishlab turgan. Dengiz suvida 38 turdagi baliqlar yashagan. 1969- yildan boshlab, minglab yillar mavjud bo‘lgan, bir vaqtlar “Ko‘k dengiz” nomini olgan go‘zal dengiz suvi kamayib o‘z hajmini qisqartira boshlagan¹.

Xususan, davlat rahbari o‘z nutqida “...biz dunyodagi eng katta ekologik ofat – Orol fojiasini bevosita o‘z boshidan kechirayotgan xalqimiz. Shuning uchun hozirgi vaqtda respublikamizda bebaho ekologik tizimni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar, jumladan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda...”, deya qayd etdi². Shuni ham aytilish joizki, davlatimiz rahbari tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida 2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e‘lon qilindi. Bu tashabbus mamlakatimizda ekologiya sohasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o‘simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, aholi va yoshlarning ekologik huquq va madaniyatini oshirishga qaratilayotgan e‘tiborning yorqin namunasi bo‘ldi⁴.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi murakkab davrda atrof-muhitni asrash, o‘sib kelayotgan yosh avlodda ekologik madaniyat, ekologik tarbiya masalalarini olib boorish muhim bo‘lib bormoqda. Bunday jiddiy vazifani bajarishda pedagoglarning o‘rni katta ahamiyatga ega. Pedagoglarimiz faqat o‘quvchilarga ta‘lim beribgina qolmay balki haqiqiy hayotga tayyorlab borishi, tabiat muhofazasiga yosh bolalik davridan o‘quvchilar ongiga sindirishi ularning ekologiyani asrash borasida qilgan eng katta qadam hisoblanadi. Shu bilan birga ekologik xavfsizlik nafaqat tabiatni himoya qilish, balki insoniyatning sog‘lig‘ini, iqtisodiy rivojlanishini va ijtimoiy farovonligini ta‘minlashga qaratilgan muhim bir masaladir. Hozirgi kunda ekologik xavfsizlikka e‘tibor berish — bu insoniyatning kelajagi uchun zaruriyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Y.Yormatova, X.S.Xushvaqtova “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018 y. 5-bet
2. Salimov X.V, “Ekologiya” Navoiy davlat konchilik instituti nashriyoti – 2015, 29-bet
3. H.To‘xtashev. “EKOLOGIYA HUQUQI”. TDYU nashriyoti 2024, 8-bet
4. “Ekologiya huquqi” R.A.Ikramov, Sh.O.Boboqulov, B.M.Qandov Toshkent-2022 “Yangi Chirchiq Book” nashriyoti-2022.
5. “Ekologik biotexnologiya” X.O‘.Bekchanov, M.X.Bekchanov, M.X.Bekchanova “BOOKMANY PRINT” TOSHKENT-2024.

6. “Bioekologiya” (O‘simlik ekologiyasi) Ro‘zmatov E.Y, Qo‘ziboyev Sh.T, Tojiboyev, M.U. Toshkent “Malika Print CO” 2021 y
7. <https://uza.uz/>.
8. <https://eco.gov.uz/ru>.

